

## KUZGI BUG'DOYNI O'G'ITLASHNING BIOEKOLOGIK ASOSLARI

**D.R.Teshayeva**

Buxoro davlat unuversiteti Biologiya fanlari falsafa doktori. (PhD)

**I.I.Ismoilov**

Buxoro davlat unuversiteti talabasi

**Anotatsiya:**Maqolada kuzgi bug'doyni o'g'itlash meyorlari, o'g'itlashning o'simlikl fiziologik jayonlariga ta'siri, sug'orish bosqichlari, me'yorlari va ularning bioekologik asoslari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:**o'g'itlash me'yorlari, sug'orish bosqichlari, fiziologik, azotli o'g'itlar, kaliyli o'g'itlar, ammafos, bioekologik.

**Annotation:**The article contains information about winter wheat fertilizing standards, the effect of fertilizing on plant physiological conditions, irrigation stages, standards, and their bioecological basis.

**Key words:**fertilizing standards, watering stages, physiological, nitrogen fertilizers, potash fertilizers, ammafos, bioecological

Inson o'zining xayotiy faoliyati uchun kerak bo'ladigan energiyaning 20% ni bug'doy hisobiga tuldirdi, 21% ni sholi, keyin qolganlarini kartoshka va makkajo'xori hisobiga tuldirdi.

Bug'doyning xushta'mlilik, sifatlilik, kaloriyasi va mahsulotlarining hazm bo'lishi uning donining kimyoviy tarkibiga bog'liq. Bug'doy oqsilining qimmatli unda almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarning borligidandir. Bug'doy donida oqsildan tashqari oqsilli modda- kleykovina mavjud, non mahsulotlari uning borligi uchun yaxshi pishadi.

Millionlab odamlar uchun bug'doy kerakli oziq-ovqat mahsuloti bo'lib kelmoqda, yer shari aholisining qariib barchasiga yashashi uchun yagona mahsulot turi bo'lib turibdi.

So'nggi 50 yil davomida O'zbekistonda harorat dinamikasi rejimining kuzatuvlari shuni ko'rsatdiki, maksimal haroratning o'sish sur'ati yiliga 0,22 darajaga, minimal esa -0,36 darajani tashkil qildi. SHunga asoslangan holda, 20 yildan keyin respublikaning shimoliy qismida o'rtacha yillik harorat 2-3 darajaga, janubiy qismida esa 1 darajaga ortadi.

Kuzgi bug'doy tuproq unumdorligiga va o'g'itlashga juda talabchan. U 1 s don va shunga muvofiq somon hosil qilish uchun 3,7 kg azot, 1,3 kg fosfor va 2,3 kg kaliy o'zlashtiradi, o'g'itlash hamma tipdagi tuproqlarda kuzgi bug'doy hosilini oshiradi. Sug'oriladigan yerlarda, kuzgi bug'doydan yuqori hosil olishning shartlaridan biri yetarli miqdorda o'g'itlarni solishdir. Tajribalarning ko'rsatishicha, sug'oriladigan yerlarda, o'g'itlar kuzgi bug'doy hosilini gektardan 26—36 sentnerga oshiradi.

Kuzgi bug'doy 60 s/ga don hosili shakllantirganda oziqa moddalariga talabi o'rtacha 200-220 kg azot, 60-80 kg fosfor, 130-140 kg kaliyni tashkil qiladi. Ammo u nam bilan ta'minlanganlikka, navga,mineral oziqlanish darajasiga bog'liq.

Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanida sug'oriladigan yerlarda tipik bo'z tuproqlarda Bezostaya—1 navi o'g'it solinmaganda gektaridan 29,0 s mineral o'g'itlar gektariga azot 100, fosfor 60, kaliy 60 kg solinganda 49,1 s dan hosil bergan. Rejalashtirilgan hosilga, ilmiy asoslangan o'g'it me'yorlarini

belgilaganda tuproq agrokimyoviy kartogrammasi hosil bilan chiqib ketadigan asosiy oziqa moddalari, solingan o'g'itlardan va tuproqdan oziqa moddalaning o'simlik tomonidan o'zlashtirishi koeffitsienti hisobga olinadi. O'g'itlash me'yorini belgilashda qaysi oziqa elementi yetishmasligi, o'simlikning boshqa elementlarga ham ehtiyoji hisobga olinadi. Sug'oriladigan yerlarda ma'danli o'g'itlarni yemi haydash oldidan, ekish bilan va kuzgi bug'doyning o'suv davrida berish yaxshi natija beradi. Kuzgi bug'doy sug'oriladigan yerlarda o'stirilganda ma'danli o'g'itlarga, ayniqsa, azotli o'g'itlarga juda talabchan, o'simlik naychalashva boshqoqlash fazalarida azotni eng ko'p o'zlashtiradi. Bu davrda azotli oziqlanish me'yorida bo'lganda, boshqoq yaxshi rivojlanadi, undagi boshqoqlar Hamada don soni oshadi.

**Foydalanilgan materiallar va usullar:** Dala tajribalari Buxoro viloyati Agronomiya va biotexnologiya fakultetining o'quv- tajriba maydonlariga o'tloqi-allyuvial tuproqlar sharoitida olib borilmoqda. Tajriba 4 qaytariqda sistematik bir yarusda joylashtirilgan. Dalaning uzunligi 20 m, eni 2.3 m, bitta paykalning maydoni 80 m<sup>2</sup>, hisobga olinib paykallar joylashtirildi. Bitta paykalda 12 qator bo'lib, shundan o'rtadagi 6 ta qator hisob-kitob qatori, ikki chetdan ikkitadan 6 ta himoya qatorlari hisoblanadi.

**Tajriba ob'ekti** – Tadqiqot ob'ekti sifatida fosfor va oltingugurt saqllovchi o'g'itlardan ammosfos (Pam) 11-12 % N, 46 % -P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> (qiyosiy o'rganish uchun), Ps-agro (Ps-agro) 4-6 % N, 41-44 %, P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>, 5-7 % SO<sub>3</sub>, Suprefos NS -12-13% , P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>-24-26%, SO<sub>3</sub> -25-28% saqlaydi. Azotli o'g'it sifatida NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub> (N – 34,5) va kaliyli o'g'it sifatida KCl (K<sub>2</sub>O – 56-60 %) qo'llanildi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Dala tajribasi qo'yishdan oldin tuproqdan tuproq namunalari olindi va agrokimyoviy ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Haydov qatlamida gumus miqdori 1,12 %ni, haydov ostida esa 0,87 %ni tashkil etdi. Yalpi oziq moddalar mos ravishda azot (N) - 0,12/0,08 %, fosfor (P) - 0,10/0,07 % va kaliy (K) – 2,78/2,54 % ni tashkil etgan bo'lsa, harakatchan oziq moddalar bilan juda kam va kam ta'minlangan ekanligi aniqlandi.

Kuzgi bug'doyni o'g'itlashdan asosiy maqsad yuqori va sifatli hosil yetishtirish bo'lsa, dastlabki o'sishi rivojlanish yaxshi bo'lsa, ildizlar yaxshi taraqqiy etsa yuqori hosil olish imkoniyati yaratiladi. Ammosfos o'g'iti qo'llanilganda kuzgi bug'doy bo'yi 94,5 sm ni tashkil etgan bo'lsa, oltingugurt saqllovchi o'g'itlar qo'llanilganda 92,4 - 93,8 sm ni tashkil etdi. Ular orasida farq kuzatilmadi. Hosildorlik bo'yicha ham shunga o'xshash malumotlar olindi.

**Xulosa.** Buxoro viloyati o'tloqi-allyuvial tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va hosil sifatiga oltingugurt saqllovchi o'g'itlar ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Ps-agro va Suprefos NS o'g'itlari kuzgi bug'doy ekinining bo'yi va hosildorligi bo'yicha ammosfos o'g'iti bilan teng ahamiyatga ega ekan.

#### Adabiyotlar:

1. Тешаева Д.Р. Шўрланган тупроқлар шароитида кузги буғдой навларини етиштиришнинг назарий ва илмий асослари.//Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси.-2022. №9/1.-В.53-58. (03.00.00.№ 12).
2. Холлиев А.Е., Тешаева Д.Р. Ҳар хил даражали шўрланган тупроқлар шароитида буғдой навларининг сув алмашинув кўрсаткичлари. //Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси.- 2022.- №9/1.- В.58-62. (03.00.00.№ 12).
3. Холлиев А. Е., Тешаева Д. Р. Adaptation Characteristics of Autumn Wheat Varieties to Salinity Stresses//Pa journal of applied research.- 2022.- Volume 08.- №03.-P.-209-213. Scientific Journal Impact Factor. ИФ.-7.036. (№23. СЖИФ. ИФ-7,1) ИССН: 2394-6709.4.Teshayeva D. R. Salt Resistance Characteristics of Winter Wheat Varieties in Soil and Climatic Conditions//American journal of social and humanitarian research.- 2021.-Volume 2, №10.- P.-152-153. ISSN: 2690-9626.



4. Сафарова З.Т.,Тешаева Д.Р Бухоро воҳасининг шимолий –ғарбий худудларида шўрга чидамли кузги буғдой навларини етиштириш//Биология ва экология журнали.- 2021.-Т.3. - №1.- Б.25-29. ISSN: 2181-0575.
5. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта.-М.: Агропромиздат, 1985. - 248-255 с.
6. Xaitbayeva J. Kuzgi bug'doyning hosil strukturasi va don sifatiga mineral o'g'it me'yorlarining ta'siri. // AGRO ILM – O'ZBEKISTON QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI. – 2019. - №4. –Б. 22-23